

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ 8 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/SCP1342V3I8Y2023

**SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 8 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодида Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

### **Тахририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Воҳидова Комила Абдуллозизовна*  
“ЭЛ БАЙРОҒИ” ГАЗЕТАСИ ҲАҚИДА ..... 11-17
- Сулайманов Саламат Арепбаевич*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН МУХТОР ВИЛОЯТИДА ҚУРУҚЛИК ВА СУВ ТРАНСПОРТИ: МУАММО  
ВА ЕЧИМЛАР (1924-1932 ЙЙ) ..... 18-24
- Раунов Холмамат*  
ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДА УРАН КОНЛАРИНИ ЎЗЛАШТИРИШ ТАРИХИ ..... 25-32
- Мажидов Анвар Сиражович*  
ИМПЕРИЯ МУСТАМЛАКАЧИЛИК СИЁСАТИНИНГ ТУРКИСТОН ТУБ ХАЛҚЛАРИНИНГ  
ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ВА ФУҚАРОЛИК АҲВОЛИГА ТАЪСИРИ (СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ  
МИСОЛИДА) ..... 33-40
- Begatova Nasiba Xolmurzayevna*  
FERMER HO‘JALIKLARI VA KLASSTER TIZIMI UCHUN O‘RTA MA‘LUMOTLI MUTAXASSISLARNI  
TAYYORLASH TIZIMIDAGI YUTUQLAR VA MUAMMOLAR (SURXONDARYO VILOYATI  
MISOLIDA) ..... 41-48
- Алланазаров Мурот Мирзаевич*  
БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ НОЗИРЛАР ШЎРОСИ ВА МИЛЛИЙ РАҲБАР  
ХОДИМЛАР ФАОЛИЯТИ ХУСУСИДА ..... 49-54
- Ismoilova Feruza Ibragimovna*  
URUSH YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARIDAGI  
XIZMATLARI ..... 55-59
- Tursunov Xurshid Nasriddinovich*  
O‘ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI ..... 60-64

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

- Yuldosheva Gulnoza Abdinabiyevna*  
THE ROLE OF THE DIGITAL ECONOMY IN MODELING THE FINANCIAL ACTIVITIES OF  
ENTERPRISES ..... 65-70
- Oromidinov Muzaffar Pardabayevich*  
DIRECTIONS FOR IMPROVING INTERNAL AUDIT IN COMMERCIAL BANKS ..... 71-75
- Худайназарова Дилором Хайруллаевна*  
ТЎҒИМАЧИЛИК САНОАТИ КОРХОНАЛАРИНИНГ ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ ДОИРАСИДАГИ  
РИСКЛАРИНИ СТРАТЕГИК ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ..... 76-84

<i>To'lov Ulug'bek Toshmamatovich, Jo'rayev Sirojiddin Muxiddin o'g'li</i> KO'CHMAS MULKNI SOLIQQA TORTISHDA XORIJIY DAVLATLARDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR .....	85-92
<i>Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich</i> MINTAQADA XIZMAT TURLARIDAN SAMARALI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI .....	93-98
<i>Turobov Sherzod Alisherovich</i> O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA UY XO'JALIKLARI TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHDA DAVLAT SIYOSATI .....	99-105
<i>Шамсиев Нодир Муратович</i> МЕТОДЫ ОЦЕНКИ ПОКАЗАТЕЛЕЙ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ ПРИ АНАЛИЗЕ РЕЙТИНГОВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И ИХ КАЧЕСТВЕННОЕ ОПИСАНИЕ .....	106-110
<i>Zaripova Moxira Zarip qizi</i> AGRAR SOHAGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI .....	111-114
<i>Узайдуллаев Шерзод Шукуруллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОНДА ИННОВАЦИОН ИНФРАТУЗИЛМАНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ОМИЛЛАРИ .....	115-121
<i>Atabayeva Karomat Rajabovna, Rajabova Maftuna Farhod qizi</i> O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANISHI VA TAHLILI .....	122-127
<i>Жумаева Мухлиса Абдуғани қизи</i> МАМЛАКАТДА АЁЛЛАР ТАДБИРКОРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	128-137
<i>Камалов Акмал Сайдакбарович, Саматов Ғаффор Аллақулович</i> ГЕОИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАР ШАРОИТИДА ТРАНСПОРТ ЛОЙИХАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИШГА БЎЛГАН ЁНДАШУВЛАРНИНГ ТАҲЛИЛИ .....	138-150
<i>Мамадиёров Олимжон Умарович</i> ОЗИҚ-ОВҚАТ ХАВФСИЗЛИГИ ТАЪМИНЛАШ НАЗАРИЯЛАРИ ЭВОЛЮЦИЯСИ.....	151-158
<i>Раббимов Жахонгир Эшбоевич</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА ОПЕРАЦИОН РИСКЛАРНИНГ МОҲИЯТИ, УЛАРНИНГ ЮЗАГА КЕЛИШ САБАБЛАРИ .....	159-164
<i>Кулибоев Азамат Шоназарович</i> ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИНГ УСЛУБИЙ АСОСЛАРИ .....	165-174

*Гадоев Сўҳроб Жумакулович*  
ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ КРЕДИТИНИНГ ТАЪМИНОТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ  
ЙЎЛЛАРИ ..... 175-181

*Бекжанов Дилмурод Йўлдашович*  
ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТ НАТИЖАЛАРИ АСОСИДА ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИОН  
МЕНЕЖМЕНТ ЖАРАЁНИ ИШТИРОКЧИЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ БАҲОЛАШ ..... 182-193

### **09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

*Boydadayev Abdurroхтон Tolibjon o'g'li*  
SHARQ VA G'ARB IRRATSIONAL FALSAFASIDA PANTEISTIK QARASHLARNING QIYOSIY  
TAHLILI (J.RUMIY VA F.NITSSHE FALSAFASI MISOLIDA) ..... 194-200

*Xayridinov Abbosxon Anvarovich*  
GLOBALLASHUV JARAYONIDA MA'NAVIY MA'RIFIY INQIROZLARNING OLDINI OLISHDA  
MARKAZIY OSIYO QADRIYATLARINI YUKSALTIRISH ISTIQBOLLARI ..... 201-205

*Quramboyev Alisher Maxsudovich*  
TEMURIYLAR DAVRIDA IJTIMOY ADOLAT TAMOYILLARINING AMAL QILISHI ..... 206-211

*Jo'rayev Alisher Tulqinboyevich*  
JAMIYAT MILLIY ASOSLARINI MUSTAHKAMLASH – DAVLATNING USTUVOR  
MAQSADI..... 212-217

*Turabova Sevara Kattaqulovna*  
ILMIY VAHS FENOMENINING MANTIQUIY- GNOSEOLOGIK MAQOMINI O'RGANISHDA  
KONSEPTUAL-METODOLOGIK YONDOSHUV ..... 218-224

*Пардаева Марҳабо Давлатовна*  
АЛИШЕР НАВОЙ АСАРЛАРИДА ИЛМГА ОИД ҚАРАШЛАРИНИНГ НАҚШБАНДИЯ  
ҲОЯЛАРИ БИЛАН УЙҒУНЛИГИ ..... 225-233

*Qutlimuratov Sardorbek Rustamovich*  
NIKON MUNOSABATLARINING TADRIJIY RIVOJLANISHI ..... 234-240

*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*  
DINIY MANBALARDA GO'ZALLIK TO'G'RISIDAGI FALSAFIY QARASHLAR ..... 241-246

*Юсупова Феруза Зойировна*  
АХЛОҚИЙ ИДЕАЛ – ЁШЛАР МАЪНАВИЙ ЮКСАЛИШИНING МЕЗОНИ ..... 247-251

*Teshaboev Muhiddin Marifovich*  
IJTIMOIY ADOLATNI TA'MINLASHNING PRINSIPIAL MASALALARI ..... 252-257

## **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

*Soatova Nodira Isomitdinovna*

LIRO-EPIK ASARLARDA POETIK FIKRNING BADIY IFODASI ..... 258-265

*Narmuratov Zayniddin Radjabovich*

FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR LINGVOMADANIY BIRLIK SIFATIDA ..... 266-269

*Yusupova Omina Muhammadzoir kizi*

DIFFERENT CLASSIFICATION OF FAIRYTALE DISCOURSE IN WORLD AND UZBEK FOLKLORE ..... 270-276

*Бозорова Хулкар Одинакуловна*

РУССКИЙ ЯЗЫК КАК СОСТАВЛЯЮЩАЯ СОДЕРЖАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ ..... 277-282

*Matyakubov Oybek Quralbayevich*

KOGNITIV TILSHUNOSLIKDA «KONSEPT» TUSHUNCHASI ..... 283-288

*Фатуллаева Камола Рахматуллаевна*

ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕЛГИЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ТАСНИФИ ..... 289-293

*Karimjonova Shahlo Ravshanjonovna*

O'ZBEK TILIDA KAUZATIV FE'LLARNING YASALISH USULLARI ..... 294-299

*Xamzayev Otaxon Erkinovich*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KASB-HUNARGA OIDMAQOLLARNING CHOG'ISHTIRMA TAHLILI ..... 300-305

## **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

*Абдурахманова Нодирахон*

ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ СМАРТ-КОНТРАКТОВ В СНГ ..... 306-310

*Сафоева Садокат Мусоевна*

ЭКОСИСТЕМА СОЦИАЛЬНЫХ СЕТЕЙ: ИССЛЕДОВАНИЕ РОЛЕЙ ЗАИНТЕРЕСОВАННЫХ СТОРОН В КОНТЕКСТЕ ГРАЖДАНСКОГО ПРАВА ..... 311-320

*Абдуллаева Маликабону Эркин қизи*

ХАЛҚ ТАЪЛИМИ СОҲАСИДА КОРРУПЦИЯНИНГ ОЛДИНИ ОЛИШГА ОИД АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР ТАЖРИБАСИНИНГ ҚИЁСИЙ ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛИ ..... 321-330

## **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

*Zoirova Lola Xamidovna*

TIBBIYOT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA "INSON ORGANIZMINING RADIATSIYAGA SEZGIRLIGI" MAVZUSINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN



FOYDALANISH .....	331-336
<i>Ibragimov A'lamjon Amrilloevich</i> KOGNITIV SIFATLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHGA TA'SIRI (MAKTAB PEDAGOG XODIMLARI MISOLIDA) .....	337-343
<i>Madaminov Azimbek Egamberganovich, Xalillayev O'ktam Sobir o'g'li</i> YOSH GANDBOLCHI DARVOZABONLARNI O'YIN TEXNIKASIGA O'RGATISH .....	344-349
<i>Fayzullaeva Madina Abdumumin kizi</i> ANALYSIS OF THE POSITIVE IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGIES ON THE MOTIVATION AND KNOWLEDGE OF STUDENTS IN THE DEVELOPMENT OF THE EDUCATIONAL PROCESS .....	350-355
<i>Джумаева Хулкархан Мухаммаджонова</i> ВНУТРЕННИЕ УГРОЗЫ, НЕГАТИВНО ВЛИЯЮЩИЕ НА ДУХОВНОСТЬ СТУДЕНТОВ..	356-361
<i>Islomova Madina Asqarovna</i> INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH .....	362-368
<i>Raxmatova Mexrinov Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHİYATINI O'RGANISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	369-373
<i>Абдукаюмова Наргиза Райимовна</i> ЮҚОРИ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИНИНГ МАДАНИЙ-ИНТЕЛЛЕКТУАЛ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ДИДАКТИК ШАРТЛАРИ .....	374-384
<i>Norboyev Farxod Chorshanbiyevich</i> KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR .....	385-390
<i>Borasheva Aybolgan</i> EXPLORING JAMES MCCROSKEY'S RESEARCH ON WILLINGNESS TO COMMUNICATE IN L1 CONTEXTS: IMPLICATIONS FOR LANGUAGE TEACHING AND LEARNING .....	391-398
<i>Fayzullayeva Gulchexra Sharipboyevna</i> KOGNITIV TADQIQOTLARNING FANLARARO TUSHUNCHA SIFATIDAGI MOHIYATI VA MANTIQUIY TAHLILI .....	399-409
<i>Boboraximov Sanjar Malikjanovich</i> MAKTABDA O'QUVCHILARNI JISMONIY TARBIYALASHNING ZARURATI VA UNGA QO'YILADIGAN TALABLAR .....	410-414
<i>Salimova Shahlo Sayfulloyevna</i> XAVFSIZ TA'LIM MUHITI MONITORINGINING AHAMIYATI .....	415-421

<i>Sayfiddinova Jamila Ziyodulla qizi</i> METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF LOGICAL REASONING IN PRIMARY SCHOOL PUPILS .....	422-427
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO‘GARAKLARI ORQALI TALABALARNING JISMONIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH KOMPONENTLARI .....	428-433
<i>Kattaeva Feruza Shakirovna</i> DEVELOPING STUDENTS SOCIO-CULTURAL COMPETENCE BY USING SOCIO CULTURAL DISCOURSE ANALYSIS METHOD .....	434-441
<i>G‘ofurov Azizbek Umarjonovich</i> BO‘LAJAK JISMONIY TARBIYA FANI O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH .....	442-447
<i>Abduraximova Umida Shuxratovna</i> BO‘LAJAK TARJIMONLARNING LINGVOMADANIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI .....	448-454
<i>Obidova Gulmira Kuzibaevna</i> INGLIZ TILINI O‘RGANISH JARAYONIDA TEXNIKA TA‘LIM YO‘NALISHI TALABALARIDA EKOLOGIK MADANIYAT ASOSLARINI SHAKLLANTIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR VA INTERAKTIV METODLAR .....	455-460
<i>Axmadaliyeva Xosiyatposhsho Abduxayotovna</i> PROFESSINAL TA‘LIM YO‘NALISHLARIDA TAHSIL OLAYOTGAN O‘QUVCHILARNING INGLIZ TILIDAN KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI AUTENTIK MATERIALLAR ORQALI TAKOMILLASHTIRISH .....	461-469

13.00.00- Педагогика фанлари

**Islomova Madina Asqarovna**

O'zDJTU "Nemis tili amaliy fanlar" kafedrasida o'qituvchisi

Email: [madinaislomova828@gmail.com](mailto:madinaislomova828@gmail.com)

### **INTEGRATSIYALASHGAN SUN'IY INTELLEKT TOMONIDAN YARATILGAN CHATGPT BOT YORDAMIDA NEMIS TILI O'QITISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada, sun'iy intellekt (SI)ning kundan kunga rivojlanib borayotganligi, avvallari inson tomonidan bajarib kelingan deyarli barcha vazifalarni bajara olish qobiliyatiga ega ekanligi, raqamli texnologiyalar ta'lim jarayonining imkoniyatlarini kengaytirishiga xizmat qilayotgani, Al tomonidan yaratilgan til o'rgatuvchi chat botlardan chet tillarini o'qitish amaliyotida qo'llash, undan samarali foydalanish shu orqali mashqulotlar samaradorligini oshirish mumkinligi haqida fikr yurutamiz.

**Kalit so'zlar:** Oliy ta'lim, chet tillari, sun'iy intellekt, chatbotlar, o'qitish, texnik taraqqiyot.

**Islamova Madina Askarovna**

The Teacher of the Department of Practical German,  
Uzbek State World Languages University

### **IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF GERMAN LANGUAGE LEARNING WITH THE CHATGPT BOT BASED ON INTEGRATED ARTIFICIAL INTELLIGENCE**

**Abstract.** In this article we will discuss how artificial intelligence (AI) - the direction of modern science, developing day by day, possessing the ability to perform almost all tasks previously performed by humans, digital technologies serve to expand the possibilities of the educational process, the use of chatbots created by "AI" in the practice of teaching foreign languages.

**Keywords:** Higher education, foreign languages, artificial intelligence, chatbots, learning, technological progress.

**Исламова Мадина Аскарровна**

Преподаватель кафедры  
"Практического немецкого языка" УзГУМЯ

### **ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НЕМЕЦКОМУ ЯЗЫКУ С ПОМОЩЬЮ БОТА CHATGPT, СОЗДАННОГО НА ОСНОВЕ ИНТЕГРИРОВАННОГО ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА**

**Аннотация.** В этой статье обсудим, как искусственный интеллект (ИИ) - направление современной науки, развивающееся день за днем, обладающее способностью выполнять практически все задачи, ранее выполнявшиеся человеком, цифровые технологии служат расширению возможностей образовательного процесса, использование в практике обучения иностранным языкам чат-ботов, созданных (AI)ом.

**Ключевые слова:** Высшее образование, иностранные языки, искусственный интеллект, чат-боты, обучение, технический прогресс.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/SCP1342V3I8Y2023N52>

Mavjudotlar orasida eng oliy mukofot insonga nasib qilgan. Bu aql va idrokdir. Ta'm bilish, sezish, his qilish, idrok etish, tasvirlash, fikrlash, sevishtirish, achinish, tasavvur qilish, xotira, muammolarni o'rganib chiqib uni bartaraf etish kabi qobiliyatlarini o'zida mujassam etgan insoniy kognitivlikni jumlasida bu – aql va idrokdir. Shu aql va idrokka tayanib u o'zi uchun qulaylik, sharoit yaratishga intilib kelgan. Hozirgi yashayotgan vaqtni raqamli texnologiya va innovatsiya asri desak muvofiq bo'lmaydi. Inson o'zining o'rniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordamchilar ixtiro qilish ustida izlanib kelmoqda va albatta bu, besamar ketmayapti. Bugungi kunda hech kim o'zini hayotini internetsiz, aqlli texnikasiz tasavvur qila olmaydi. Masalan mobil qurilmamizdagi dasturlar, lug'atlar, turli xil o'yinlar, aqlli ovozli yordamchilar **Siri – Apple, Alisa – Yandex, Alexa – Amazon, Google** [1], yoki o'zimizni zukko **“Mohira”**[2] larsiz kundalik hayotimizni to'la-to'kis tasavvur qila olmaymiz, bu hech kimga sir emas, yuqorida misol tariqasida aytib o'tilgan dasturlarni barchasi sun'iy intellektni mahsuli hisoblanadi. Sun'iy intellekt — kelajakka tegishli emas — bu hozir sodir bo'lmoqda. Ha aynan biz bilan bugungi kunimizda sodir bo'lmoqda.

Intellekt (lotincha intellectus – sezish, idrok etish, anglash, tushunish, yangi vaziyatlarga moslasha olish, tajriba asosida o'rganish va eslab qolish qobiliyatiga ega bo'lgan aql ruhiyatining sifati hisoblanadi, shu bilan birga atrof-muhitni boshqarish uchun o'z bilimlaridan foydalanish demakdir.

1950 yilda insoniyatni hayotida tub burilish yasay olgan shaxs dunyoga keldi. Biz bu insonni, insoniyat tarixida tub burilish yasay olgan buyuk shaxslardan biri desak hech ham adashmagan bo'lamiz. Bu inson, Jon Makkarti[3], u tomonidan ixtiro qilingan sun'iy intellekt – ya'ni sun'iy aql edi.

Sun'iy aql- informatikaning alohida bir bo'limi bo'lib, odatda odamlar kabi o'ylash va ularning harakatlarini taqlid qilish uchun dasturlashtirilgan inson aqli va ongi bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega inson tomonidan yaratilgan dasturlashtirilgan kompyuter tizimidir. Sun'iy intellekt (AI) avval inson tomonidan yaratilgan va bajarilgan tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar bajarish mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish aniqroq qilib aytganda takrorlash, taqlid qilish imkonini beradi [4,b.,16] AL yordamida asosan turli xil o'yinlar, yoki transportni haydovchisiz boshqarish, xaritalar tuzish, insonga havf tug'diradigan balandlik, chuqurlik, yoki shunga o'xshash masofadan ma'lumot olishish imkoniyatini beradi. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarda katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga “o'rgatish” mumkin. AI tizimi ma'lumotlar va ko'rsatmalarni oladi, ular asosida tizim xulosalar chiqaradi va funksiyalarni bajaradi. Vaqt o'tishi bilan u insoniy fikrlash va mantiqni o'rganishni davom ettiradi [5,b.,158]. Shu sababli global sun'iy intellekt dasturiy ta'minot bozori yiliga 154 foizga o'sib borayotganligi sababli, sanoat 2025 yilga borib 22,6 milliard dollarga baholanmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining

2019-yil 8-oktyabrdagi PQ №5847-sonli Farmoniga asosan, mamlakatimizda, bosqichma-bosqich joriy etilishi rejalashtirilgan. O‘zbekistonda hozirgi kunda “Universitet 3.0” modeli ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarni tijoratlashtiruvchi model bo‘lib hisoblanadi. Davlatimizning ilg‘or oliy ta‘lim muassasalarida bosqichma-bosqich “Universitet 4.0” modelini joriy etish va shu bilan birga ta‘lim sifatini oshirish, oliy ta‘lim muassasalarining o‘z-o‘zini mablag‘ bilan ta‘minlashga o‘tish hozirgi kunda juda dolzarb muammo bo‘lib hisoblanmoqda[6,b.,3].

Raqamli texnologiyalarning keng joriy etilmoqda, u inson faoliyatining barcha sohalariga kirib keldi, jumladan, ta‘lim tizimini ham chetlab o‘tmadi. Ta‘lim jarayonida masofaviy texnologiyalar, raqamli vositalar va xizmatlardan foydalanish masalalariga butun dunyoda tobora ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda raqamli texnologiyalar ta‘limning shu paytgacha shakllangan modelini butunlay o‘zgartirib yubormoqda.

An‘anaviy shaklda o‘tkaziladigan darslardan farqli o‘laroq, raqamli texnologiya vositalardan foydalangan holda olib borilayotgan mashg‘ulotlar jarayoni yanada qiziqarli va samarali bo‘layotgan ekanligi hech kimga sir emas. Chet tilini o‘rganishda sun‘iy intellekt (AI) texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini ko‘rib chiqsak:

Oliy ta‘lim tizimida, odatda xar bitta guruhda o‘rtacha 12-15ta talaba tahsil oladi, bu esa, bir vaqtning o‘zida o‘qituvchining o‘z vaqtini barcha talabalarga teng taqsimlagan holda e‘tibor qaratishiga deyarli imkoni yo‘q. O‘quv jarayoniga integratsiyalashgan sun‘iy intellektga asoslangan texnologik yechimlarni qo‘llash orqali o‘qituvchi, talabalarni mavzuni qay darajada tushunishlarini o‘zlashtirishlarini kuzatib borish imkoniga ega bo‘ladilar.[7.b.,304]

Masalan o‘tilgan mavzuni qay darajada tushunganliklarini bilish uchun Kahoot platformasidan foydalangan holda qiziqarli, shaffoflik asosida, eng muhimi kam vaqt sarflab talabani o‘zlashtirishini kuzatish va baholash mumkin. Ta‘lim jarayonidagi bunday usul raqamli texnologiya vositasining eng sodda usuli hisoblanadi.

Hozirgi kunda dunyo bo‘ylab tarqalgan mashhur, zamonaviy AI botlardan biri bu “**ChatGPT**”dir. 2022-yil 30-noyabrda ChatGPT birinchi marotaba sinov tariqasida ishga tushirildi va o‘zining keng imkoniyatlari bilan e‘tiborni tortdi: kod yozish, matn yaratish, tarjima qilish, aniq javob olish va javoblar uchun dialog kontekstidan foydalanish imkoniyatiga ega edi, garchi uning haqiqiy aniqligi ko‘pgina tanqidlar ostida qolgan bo‘lsa ham[8].

ChatGPT boti OpenAI kompaniyasi tomonidan yaratildi. Ushbu chatbot OpenAI — GPT-3.5 — GPT-3 modelining takomillashtirilgan versiyasi chet til modeliga asoslangan. 2023-yil 14-martda CHATGPT Plus sinovchilar va pullik obunachilar uchun GPT-4 til modeli taqdim etildi.

Chet tili o‘rganishga moslashtirilgan ChatGPT til o‘rgatish metodikasi chet tili(nemis tili) o‘rgatishdagi to‘rtta asosiy mezonga asoslanagan: Grammatika, imlo, ma‘no va mavzuga oid so‘zlarni faol ishlatish. ChatGPT asoslangan dastur, avtomatik ravishda foydalanilayotgan komponentga moslasha olish qobiliyatiga ega, dastur tashlab ketilgan so‘zlar o‘rinini to‘ldirishi yoki to‘liq matndan ularni tashlab ketib, bo‘shliqlarni to‘ldirish mashqlarini javoblari bilan birgalikda, bir nechta variantlari ega bo‘lgan mashqlarni, ya‘ni semantik kontekstlarni ham yarata olish qobiliyatiga ega. Bundan tashqari, tizim avtomatik ravishda mavjud matnni baholaydi va grammatik xatolarni aniqlaydi va tahlil qila oladi.

Xo'sh bu bot chet tili o'rgatishda o'qituvchiga qanday yordam bera oladi, bu jarayonda uning mohiyati nimadan iborat. Bu botning neyron tarmoqlarida qanday mo'jizaviy ishlarni, insonni o'rniga bajarayotgani ko'rib ham hayratga, ham dahshatga tushasan. Dan Gillmor, talaba berilgan topshiriqni bajarish davomida ChatGPT-dan foydalangan va u yaratgan matn, yaxshi o'zlashtirishga ega talaba taqdim etishi mumkin bo'lgan matnga mos kelishini aniqlagan va bundan buyon "Ta'lim akademiyasi oldida juda jiddiy muammolar vujudga kelyapti" degan fikrni bildirgandi[9].

Chat GPT- munozaralarda faol ishtirok eta oladigan va odam kabi so'rovlarga tegishli javoblarni yarata olish qobiliyatiga ega. O'qituvchi bilan o'rganish bilan birga chatbot orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni taklif qiladi va bir paytni o'zida o'zlashtirilgan mavzuni tahlil qila oladi.

Sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalar orqali yaratilgan ushbu bot hozirgi kunda barcha cheklovlardan o'tib ketdi. Gap shundaki, ChatGPT hatto inson aql-idrokini almashtirishi mumkin bo'lgan darajaga etib qoldi desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki u nafaqat, suhbat davomida suhbatdoshini savollarga avtomatik javob bera oladi, balkim oldingi suhbatlarni hisobga olgan holda mos javoblarni ham bera olish qobiliyatiga ega.

Siz o'tilayotgan mavzuni tanlashni va shu bilan birga mavzuga oid ko'rsatmalarni berasiz va talabalardan "Wochenende" mavzusini ChatGPT botda kiritishni so'raysiz: Ko'zlangan maqsad: Sie möchten am Wochenende in Zoo gehen. Erzählen Sie davon im Präteritum und schreiben Sie die Tagesordnung im Präteritum. (dam olish kuni hayvonat bog'iga borishni rejalashtiraysiz, shu haqida o'tgan zamon (Präteritum) shaklida gapirib bering va kun tartibini ham o'tgan zamon shaklida yo'zing).

ChatGPT sizga "Wochenende" mavzusiga doir (neue Vokabeln, Redewendungen und grammatische Regeln) yangi so'zlarni va suhbat jarayonida ishlatish mumkin bo'ladigan leksik iboralarni, grammatik strukturalarni va mavzuga oid yangi so'zlar jamlamasini taqdim etadi, yozma mashg'ulotlarni ham muddati tugashi bilanoq, sodir etilgan xatolarni bir zumda aniqlab, keyingi topshiriqlarda ularni to'g'ri qo'llash yo'llarini ham taklif eta oladi va hatto bu bot orqali turli xil xatlar yoki insholar yozish ko'nikmalarini yaxshilashi, talabaga, yo'l qo'ygan xatolarini tuzatish uchun zudlik bilan harakat qilish imkonini beradi. Albatta bu mo'jizani o'zginasi. Al dars jarayonida o'qituvchini vaqtini tejaydi va talabalar bilan yanada ko'proq ishlashi uchun imkon yaratib beradi, o'quv faoliyatini muvofiqlashtirish uchun ko'proq vaqtga ega bo'lishlarini va har bir talabaga individual yondashuvni, darsni qiziqarli o'tishini ta'minlaydi va o'qituvchilarga ma'ruzalarda yoki amaliy topshiriqlarda zaif nuqtani aniqlashda va e'tiborni ko'proq shu nuqtaga qaratishga imkon yaratadi, shu bilan birga mashg'ulot sifatini oshiradi va eng asosiysi talabani baholashda shaffoflikni ta'minlab qolmay, o'z navbatida talabani o'ziga bo'laga ishonchini yanada orttiradi, bir so'z bilan aytganda ChatGPT bilan o'qituvchini mashg'ulotdan ko'zlagan barcha maqsadiga erishishda tengsiz yordam bera oladi. Rolgaiser A.A. ta'kidlaganidek, bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganishda qo'llaniladigan eng mashhur sun'iy intellekt vositalari matnni aniqlash va tahlil qilish xizmatlaridir (ovozli yordamchilar, chat botlari, onlayn tarjimonlar, imloni tekshirish xizmatlari, tinish belgilari, grammatika va matni uslubi tahlil qilish va x.k) [10,b.244].

Dars berishda yuqori samaradorlikka erishish uchun, talabaning qobiliyatlarini yaqindan o'rganmasdan turib, o'zlashtirish darajalarini bir xil deb hisoblash, qabul qilish va o'rganish imkoniyatlarini inobatga olmasdan turib mashg'ulotni boshlash yoki olib borish,

hammaga bir xil darajadagi topshiriq va vazifalarni berish, shu bilan birga guruhdagi barcha talabalardan bir xil darslikka amal qilishlarini talab qilish, behuda vaqt yo'qotish va eng asosiysi, samaradorlikni pasayishiga asos bo'ladi.

Endilikda har bir o'qituvchi sun'iy intellekt asosida elektron darslik yaratishi, buning uchun u yangi zamon texnikasini tushunishi, uni o'rganishi kerak bo'ladi. Darsliklarni moslashtirish nafaqat talablarga, balkim o'qituvchilar uchun ham foydali bo'ladi. Misol uchun, agar o'qituvchilar o'zlarining Universitetlarida tasdiqlangan fan dasturlari yordamida ishlab chiqqan dars berish metodlarini sun'iy intellekt asosida yaratilgan tizimga yuklasalar, aqlli yordamchi "AI"ning(tizimning) o'zi muayyan kurs yoki hatto talabalar guruhiga moslashtirilgan darsliklarni yaratib bera olish imkoniyatiga ega.

Darhaqiqat "AI" juda yaxshi yordamchi, u nafaqat talabani ko'proq mustaqil ishlashga, balkim o'qituvchining ham o'zini ustida ko'proq ishlashiga, zamon bilan ham nafas bo'lishiga undaydi. "AI" bilan do'stlashishda esa o'qituvchiga Neyro-lingvistik Dastur yordam beradi.

Neyro-lingvistik dasturlash (NLP) — bu sun'iy intellekt va tilshunoslikni birlashtirgan soha bo'lib, uning maqsadi inson tilini avtomatlashtirilgan holda qayta ishlashdir. NLP avtomatlashtirilgan yozma va og'zaki nutqini yaratish va tahlil qilishga qaratilgan, garchi nutqni qayta ishlash bilan ko'pincha alohida soha shug'ullansa ham. NLP — tilshunosligining amaliy tomoni, rasmiy tahlil va tahlil bilan bog'liq fanlararo o'rganadigan bo'lim sifatida tushunish mumkin. Tilni modellashtirish va uni tilshunoslik, informatika va psixologiya chorrahasida qo'llashdan iboratdir [11,b.,817].

Chet til o'rganish jarayonlarida sun'iy intellektni joriy qilish haqida gap ketganda, o'quvchilarga o'rganayotgan tilning lug'atini o'zlashtirishga yordam beradigan Android, iOS va NLP ilovalarining katta tanlovi mavjud ekanligini aytib o'tish joiz. Ba'zi ilovalar hattoki Oksford lug'atlari ma'lumotlaridan va avtomatlashtirilgan aqlli fikr-mulohazalarni ta'minlovchi o'qituvchining xatti-harakatlariga taqlid qilishga mo'ljallangan FeeBu, DEEPL, Yandex kabi hozirgi kundagi mashhur integratsiyalashgan sun'iy intellektdan foydalaniladi. Ilovalar ingliz, nemis va boshqa tillardagi haqiqiy matnlarning ulkan korpusiga kirish huquqiga ega, bu esa kontekstli lug'atni ham taqdim eta olishini bildiradi. Chet tili o'rganishning hozirgi kunning samarali va aqlli yechimi, bu hozirda sodir bo'layotgan taraqqiyotdan xabardor bo'lishdir. Agarda til o'rganayotgan ham, til o'rgatayotgan ham Alni o'z shaxsiy ma'lumotlariga asoslangan ehtiyojlariga moslashtira olsa, unda Al unga kerakli, shaxsga moslashtirilgan, individuallashtirgan o'quv materiallarini taqdim eta oladi.

Xo'p, agar bunday botlar shunchalar aqlli ekan, talaba bilan bemalol so'zlasha olar, xatolarni ko'rsatib bera olar, hatto grammatik strukturalarni tushuntirib bera olar ekan( nemis tili o'rganish jarayonida nemis tili grammatikasi murakkab va o'ziga xos strukturalarga ega ekanligini va u lingvistikada so'z birikmalari, gaplarni tuzilish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi ekanligini, shu bilan birga u til o'rganuvchidan unga to'liq unga rioya etishini talab qilinishini hisobga olsak, til o'rganishda muhim rol o'ynashini ko'rish mumkin), unda o'qituvchini nima keragi bor degan savol tug'ilishi tabiiy. Bu savol o'z navbatida Alni foydali va zararli tomonlari ko'rib chiqishga undaydi. Har tangani ikki tomoni bo'lgani kabi AL(suniy aql)ning ham yutuq va kamchiliklari bor albatta.

Masalan, o'rganayotgan tildagi yozma topshiriqni bajarish asnosida albatta tarjima qilishdan foydalaniladi, agarda talaba tarjimani biron bir dastur orqali amalga oshirsa, tajribali pedagog buni darrov payqaydi va tarjima qilingan matndagi nomuvofiqlik va xatolarni

ko'rsatib, ularni tushuntirib beradi. Bu ayniqsa bo'lajak tarjimonlikni o'rganayotgan talabalarda ko'p kuzatiladi, chunki mashina to'g'ridan- to'g'ri tarjimoni, ya'ni so'zma-so'z tarjimoni amalga oshiradi, so'zma-so'z tarjimada idiomalarni noto'g'ri tarjima qilish hollari kuzatiladi, ayniqsa bu badiiy tarjima jarayonida yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu "Al"ning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari – Alni sof insoniy fazilatlariga ega emasligi, hamdardlik, do'stona qo'llab-quvvatlash qobiliyatini mavjud emasligi va boshqa shunga o'xshash yo'riqnomalarini yo'qligi yoki turli xil hayotiy vaziyatlarga intuitiv ravishda to'g'ri reaksiyalarning mavjud emasligi ham "Al"ning kamchiliklaridandir [12.b,77]. Shuncha kamchiliklariga qaramay Al ta'lim tizimiga borgan sari chuqurroq kirib boryapti va o'z navbatida iliq kutib olinyapti.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, oliy ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarning jalb qilish, ta'lim jarayonida o'qituvchini imkoniyatlarini kamaytirish emas, aksincha o'qituvchining kasbiga yondashuvini, uni shaxs sifatida rivojlanishini, fikrlash doirasini kengaytirishga, talabalardan bir qadam oldinda bo'lishiga, zamonaviy ilg'or texnologiyalardan boxabar bo'lishiga, alxusus zamon bilan hamnafas bo'lib xizmat qilishiga yordam berishdan iboratdir. Chunki hozirgi kunda oliy ta'limning kelajagi yangi texnologiyalar va AL kabi aqli mashinalar bilan uzviy bog'liqdir. Bu sohada sun'iy intellektdan foydalanish ta'lim jarayonida yangi imkoniyatlarni ochib beradi. AI oliy ta'lim tizimining kelajakdagi ko'rinish desak mubolag'a bo'lmaydi.

#### Adabiyotlar/Литература/References:

1. Alisa (ovozli yordamchi) Alisa Microsoft Windows, Android va iOS operatsion tizimi Birinchi nashr 10 oktyabr 2017 yil yandex.ru/alice.
2. O'zbekistondagi ilk aqli ovozli yordamchi – Mohira bilan tanishing!  
<https://www.terabayt.uz>.
3. Jon Makkarti (kompyuter olimi) - John McCarthy (computer scientist) – Wikipedia
4. Islom S., Jahon N. Raqamlashtirish va ta'lim tizimi: tadqiqot // Kompyuter fanlari va axborot xavfsizligi xalqaro jurnali (IJCSIS). - 2018. - jild. 16.
5. Sun'iy intellekt chet tilini o'rganish uchun muqobil manba sifatida / / gumanitar va ijtimoiy fanlar. 2019. № 3. B.155-166
6. Maxkamov B.Sh. "Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda o'qitishning zamonaviy tizimlari va texnologiyalarini qo'llash masalalari" Toshkent, 17.01. 2022.
7. Shefiyeva E. Sh. masofadan o'qitishda, shu jumladan chet tillarida Internet xizmatlaridan foydalanish koronavirus pandemiyasi sharoitida / / XXI asrdagi Oliy maktab o'qituvchisi: 17-xalqaro materiallar ilmiy-amaliy konferensiya. Rostov n / D, 2020 yil. B. 398–402.
8. Перейти обратно: **1 2** Создатели чат-бота ChatGPT представили новое поколение языковой модели. GPT-4 умеет обрабатывать не только текст, но и картинки. *Meduza* (14 март 2023). Qaraldi: 07.07.2023
9. [Hern. „AI bot ChatGPT stuns academics with essay-writing skills and usability“. \*The Guardian\* \(4-dekabr 2022-yil\). Qaraldi: 10.07.2023](#)



10. Rolgayzer A.A. Sun'iy intellektdan foydalanish istiqbollari chet tilini o'qitish amaliyoti // Lingvodidaktikaning dolzarb masalalari va chet tillarini o'qitish metodikasi: Sat. ilmiy Art. - Cheboksari: Chuvash. Davlat ped. un-t, 2022. – B.243-248
11. Islom S., Jahon N. Raqamlashtirish va ta'lim tizimi: tadqiqot // Kompyuter fanlari va axborot xavfsizligi xalqaro jurnali (IJCSIS). - 2018. - jild. 16.
12. Isayeva I. E. zamonaviy universitet: ustuvorliklarni o'zgartirish / / ta'lim falsafasi. 2005. № 1 (12). B.76-79.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 8 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).